AFROSIYOB KULOLCHILIGIDA SIMOBKO‘ZACHALAR: TIPOLOGIYA VA EVOLYUTSIYA MASALALARI

Temirova Munira Amirkulovna

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Munira.temirova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Afrosiyobdan topilgan simobko‘zachalarning tipologik xususiyatlari, shakliy rivojlanishi va bezak elementlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida tekis tubli hamda uzunchoq shakldagi simobko‘zachalarning morfologik belgilari aniqlanib, ularning O‘rta Osiyodagi boshqa yodgorliklar materiallari bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Xususan, Termiz, Dabusiya, Hayitobod, Hulbuk, Ishtixon, Zamaxshar, Oltintepa va Marvdan topilgan namunalar bilan o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, XII–XIII asrlarda Afrosiyob kulolchiligida yirik hajmli va sirlangan simobko‘zachalar ishlab chiqarilishining kengaygani, ularning bezak tizimi va tarqalish areali yoritiladi. Tadqiqot natijalari Afrosiyob simobko‘zachalarining O‘rta Osiyo kulolchilik an’analaridagi o‘rni hamda ularning xronologik rivojlanishini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: simobko‘zacha, Afrosiyob, sferokonus idishlar, tipologiya, tekis tubli idishlar, kulolchilik, O‘rta Osiyo, XII–XIII asrlar, bezak elementlari, xronologiya.

O‘rta Osiyoning simobko‘zacha ishlab chiqarish markazlaridan biri Afrosiyobda joylashgan. Bu yerdan IX-X asrlarga tegishli madaniy qatlamlardan simobko‘zachalar aniqlangan. Afrosiyob simobko‘zachalari o‘rganilishi va tipologiyasi L. I. Albaum1,

[1] Альбаум Л.И. О гончарном производстве на Афрасиабе X–XI вв. // Афрасиаб. Вып. 1. Ташкент: Фан, 1969. - С. 256–267. К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. Ответственный редактор Ю. Ф. Буряков. Ташкент издательство «Фан» Узбекской ССР •1981. – С.141.

Vyatkin, L.F.Sokolovskaya, Z.Galiyeva kabi bir qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Samarqandda ushbu turdagi idishlar X asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ommaviy ravishda ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu ularning iqtisodiy va maishiy hayotda keng qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Afrasiyob arxeologik yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kulolchilikka ixtisoslashgan ustaxona qoldiqlari aniqlangan. Ushbu ustaxona faoliyati, sferokonussimon idishlarning mahalliy ishlab chiqarilishi va ularning keng iste’mol qilinganligidan dalolat beradi. Afrasiyobning sharqiy qismida N.B. Nemseva turli dizayndagi sopol xumdonlarni o‘rgangan. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, XII asr – XIII asr boshlariga oid faqat ikkita xumdon yagona katta kameraga ega bo‘lgan. Ushbu xumdonlarda maxsus bo‘linma mavjud bo‘lib, u olov qutisi maydonini, pishirish joyidan ajratib turgan2.

Shu bilan birga Afrosiyobda badrab 19 ning R-2 qazish maydonidan XI-XII asrlarga oid bir qator topilmalar aniqlangan bo‘lib, ular orasida simobko‘zachalar ham mavjud edi3.

Afrosiyobdan topilgan № 2 – xumdon haqida L.I. Albaum quyidagicha ma’lumot beradi. Dumaloq shakldagi yuklash kamerasi (yuk tashlash qismi)dan faqatgina pol qismi va balandligi 0,5 metrga yetmaydigan pastki devorlar saqlanib qolgan. Xumdonning diametri 2 metrni tashkil qiladi. Polida 21 ta issiqlik o‘tkazuvchi teshik mavjud bo‘lib, ularning yuqori qismidagi diametri 5–10 sm orasida. Bu teshiklar tepa (gumbaz) qismga tomon kengaygan.

Teshiklarning joylashuvi quyidagicha: devorlar bo‘ylab aylanma tarzda 15 tasi, markazda 1 tasi va uning atrofida yana 5 tasi joylashgan. Xumdonning yonuvchi (issiqlik beruvchi) qismi balandligi 1 metr 30 sm, o‘rtasidagi eni 1 metr 80 sm, pastki qismidagi eni esa 1,5 metrga teng.

---

[2] Немцева Н.Б. Стратиграфия южной окраины городищаТашкент: ФАН, 1969.Афрасиаб // сб.,посвящ. Афрасиаб, Вып.1. - .С. 194, 201, 202.
[3] Шишкина Г.В. Глазурованная керамика Согда (вт.пол. VIII-нач. XIII вв.). – Ташкент. Фан. 1979. – С.74.

Uning qurilishi juda qiziqarli: g‘arbiy devor bo‘ylab, yondirish teshigiga qarama-qarshi joyda, pol ustida 30 sm balandlikda maxsus to‘siq (devorcha) qurilgan. Bu devorcha 30x17x6 sm o‘lchamdagi g‘ishtlardan terilgan. Xumdonning shimoliy qismida bu to‘siq sharqqa buriladi va bevosita yondirish teshigiga olib boradi. To‘siqlar ortida kengligi 30 sm gacha bo‘lgan yarim doira shaklidagi bo‘lmalar mavjud.

Sferokonus idishlar va ularning saqlanishiga doir kuzatuvlar

Xumdonning ushbu qismi tozalanayotganda bir necha sferokonus shaklidagi idishlar topilgan bo‘lib, ularning ba’zilari yuqori harorat ta’sirida kuchli qotgan holatda edi. Bu holat mazkur bo‘linmalar idishlarni pishirish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin degan farazni ilgari surdi. Ushbu idishlarni ishlab chiqish uchun boshqa sopol buyumlarga qaraganda ancha yuqori harorat talab etilgan. Xumdondagi to‘siqlar idishlarni kul va yonuvchi material bilan bevosita aloqada bo‘lishdan himoya qilgan4.

Afrosiyob simobko‘zachalari tipologiyasi L.F.Sokolovskaya tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, topilmalarni III tipga bo‘lib o‘rgangan5. Afrosiyobdan morfologik jihatdan farq qiluvchi 30 ga yaqin shakldagi simobko‘zachalar topilgan (1-rasm).

I. Tip. Sferokonik shakl.

Sferokonussimon idishlarning asosiy tuzilishi sferik yuqori qism va konussimon pastki qismdan iborat bo‘lgan. X–XI asrlarga oid namunalar odatda kichik hajmga ega bo‘lib, ularning bo‘yni ingichka va yassilangan yarimshar shaklida tugallangan.

Keyinchalik, XII–XIII asrlarga kelib, hajm jihatdan kattaroq sferokonuslar keng tarqalgan bo‘lib, ularning o‘rtacha qismi shaklan xilma-xil bo‘lgan. Ayrim idishlar o‘rtasi bosilgan yoki yassi bo‘lsa, boshqalari uzunchoq (ellipsoidal) shaklga ega

[4] Альбаум Л.И. О гончарном производстве на Афрасиабе в X – XI в. // Афрасиаб: афрасиабская комплексная археологическая экспедиция / отв. ред. Я.Г. Гулямов. – Ташкент : Фан, 1969. – Вып. 1. – С., 259, 260.

[5] Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том I. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII - начала XIII в.). - Самарканд: МИЦАИ, 2015.

bo‘lgan. Shuningdek, ayrim namunalar shishirilgan yoki ichkari tomon egilgan devorlari (silindrsimon) bilan ajralib turadi.

II.tip. **Tub qismi tekis bo‘lgan simobko‘zachalar.** Afrosiyoblik kulollar orasida bu tip ommalashmaganligini topilmalarning faqat ikkitasi ushbu shaklga tegishli ekanligidan bilsak bo‘ladi6.

II.1.a. u tekis tubga ega bo‘lgan - “e”- baland oyoq turiga tegishli. Bunday idishlarning tarqalgan hududi sifatida Termiz mintaqasi ko‘rsatilgan.

II. 1.b. Tekis tag qismiga ega simobko‘zachalar.

Afrosiyob uchun XII asrga oid. Qorin “tomchi” shaklida bo‘lib, sirti don tasviri bilan bezatilgan. Ushbu tur O‘rta Osiyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib Dabusiya7, Hayitobod, Hulbuk8 yodgorliklari topilmalari orasida uchraydi.

O‘rta Osiyo simobko‘zachalari tipologiyasi ko‘ra, bu shakl I guruh, 3-turiga mansub. Miyonqol Sug‘d yodgorliklari, Chuy vodiysi, Ko‘hna-Urganch, Zamaxshar, Marv manzilgohlaridan olingan tadqiqot materiallari XI-XII asr boshlarida ekanligini ko‘rsatadi. O‘lchamlari - H - 12-14 sm; Dt - 7,7-89.

III.Tip. Uzluksiz shakldagi idishlar (Удлиненный формы) –

XII asrda ishlab chiqarila boshlagan va aynan shu turdagi idishlar sir bilan qoplangan. Bu tipni Sirlangan sferokonussimon idishlar butun Sharq va Janubi-G‘arbiy Kavkazda keng tarqalgan10

Tadqiqotchilarning taxminiga ko‘ra, ushbu idishlar maxsus jarayon orqali sir bilan qoplangan: avvalo ularni kerakli aralashma bilan to‘ldirgan, so‘ngra siqib yopib, sir bilan qoplab pishirish jarayoniga qo‘yilgan.

---

[6]Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб кон. VII – нач. XII вв). Диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1995. – С.131.

[7] Maxamadiyev G. I. Dabusiya ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. Samarqand. 2024.

[8] Ходжаев Ш.Р., Филимонова Т.Г., Ахметзянов М.Р., Ходжаев А.Р. Ремесленное производство средневекового Хутталя. Душанбе, 2020. – С.231. Рис.238(6).

[9] Галиева З.С. Типология керамических сфероконусов Средней Азии // РА. 2014. № 1. - С. 81.

[10] Шишкина Г.В. Глазурованная керамика Согда (вт.пол. VIII-нач. XIII вв.). – Ташкент. Фан. 1979. – С.20.

XII-XIII asrlarga kelib Afrosiyobda nisbatan yirik hajmli simobko‘zachalar ishlab chiqarila boshlagan. Tana uzunchoq, III tipga mos, ammo sir bilan qoplanmagan. Bunday tip Ishtixon, Zamaxshar, Oltintepa, Marv kabi yodgorliklarda tarqalgan.

Topilgan sferokonussimon idishlarning deyarli barchasi bezaklangan. Ular atrofida oddiy o‘simlik-geometrik kompozitsiyalarni tashkil etgan tasvirlar mavjud bo‘lib, ular quyosh belgilari, pista yoki bodom, qo‘shma chiziqlar va boshqalar shaklida bo‘lgan. Ushbu naqshlar shtamp bilan bosilgan yoki chizilgan. Ba’zi sferokonik idishlar qo‘shimcha yelimlangan bezaklarga ega bo‘lib, ba’zi hollarda naqshlar chizilgan yoki qo‘shimcha detallar bilan bezatilgan11.

Afrosiyobdan aniqlangan simobko‘zachalar tahlili ushbu yodgorlik O‘rta Osiyoda sferokonussimon idishlar ishlab chiqarishning muhim markazlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Topilmalar orasida turli tip va variantlarning mavjudligi Afrosiyob kulolchiligida shakliy xilma-xillik hamda mahalliy ishlab chiqarish an’analarining rivojlanganidan dalolat beradi. Xususan, tekis tubli simobko‘zachalarning kam sonli ekanligi ushbu shakl Afrosiyob kulollari orasida keng ommalashmaganligini ko‘rsatsa, uzunchoq shakldagi idishlarning XII–XIII asrlarda ko‘payishi kulolchilik mahsulotlarining yangi bosqichga o‘tganini aks ettiradi.

Qiyosiy tahlillar Afrosiyob simobko‘zachalarining Termiz, Dabusiya, Hayitobod, Hulbuk, Ishtixon, Zamaxshar, Marv va boshqa markazlardan topilgan namunalar bilan yaqin o‘xshashliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat O‘rta Osiyoning turli hududlari o‘rtasida kulolchilik an’analari, texnologiyalari va madaniy aloqalarning faol bo‘lganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ayrim tiplarning keng geografik hududlarda uchrashi ularning umumiy madaniy makon doirasida tarqalganligini tasdiqlaydi.

[11] Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб кон. VII – нач. XII вв). Диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1995. – С.131.

Shuningdek, simobko‘zachalardagi bezaklarning aksariyati o‘simliksimon va geometrik motivlardan iborat bo‘lib, ular shtamp bosish, o‘yish va qo‘shimcha yopishtirma usullar yordamida ishlangan. Quyosh ramzi, pista yoki bodom shakllari hamda turli chiziqli kompozitsiyalar nafaqat dekorativ, balki ma’lum ramziy mazmun kasb etgan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, Afrosiyob simobko‘zachalari O‘rta Osiyo o‘rta asr kulolchilik san’atining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning tipologik va xronologik tahlili sferokonussimon idishlarning evolyutsiyasi, tarqalish hududi hamda madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur materiallar Afrosiyobning XI–XIII asrlardagi hunarmandchilik taraqqiyotini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxamadiyev G. I. Dabusiya ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. Samarqand. 2024.
1. Альбаум Л.И. О гончарном производстве на Афрасиабе X–XI вв. // Афрасиаб. Вып. 1. Ташкент: Фан, 1969. - С. 256–267.
2. Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том I. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII - начала XIII в.). - Самарканд: МИЦАИ, 2015.
3. Галиева З.С. Типология керамических сфероконусов Средней Азии // РА. 2014. № 1. - С. 81.
4. К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. Ответственный редактор Ю. Ф. Буряков. Ташкент издательство «Фан» Узбекской ССР •1981. – С.141.

5. Немцева Н.Б. Стратиграфия южной окраины городищаТашкент: ФАН, 1969.Афрасиаб // сб.,посвящ. Афрасиаб, Вып.1. - .С. 194, 201, 202.
6. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб кон. VII – нач. XII вв). Диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1995. – С.131.
7. Ходжаев Ш.Р., Филимонова Т.Г., Ахметзянов М.Р., Ходжаев А.Р. Ремесленное производство средневекового Хутталя. Душанбе, 2020. – С.231.
8. Шишкина Г.В. Глазурованная керамика Согда (вт.пол. VIII-нач. XIII вв.). – Ташкент. Фан. 1979. – С.74.